

MIRZO ULUG'BEK-DAVLAT ARBOBI VA BUYUK OLIM

*Andijon davlat pedagogika instituti  
katta o'qituvchisi: Atabaeva N.M.*

*Andijon davlat pedagogika instituti  
katta o'qituvchisi: Sodiqova M.S.*

*Andijon davlat pedagogika instituti  
Oligofrenopedagogika yo'nalishi  
101-guruh talabalari*

*Abduraimova Umidabonu Mansurjon qizi  
Qo'chqarova Farog'at Fayzullo qizi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada buyuk olim va davlat arbobi Mirzo Ulug'bek O'zbek astronomi, matematigi, tarixchisi, geografigi, musiqa ilmi ustasi va shu bilan birga davlati rivojiga qo'shgan hukmdorligi to'g'risida ma'lumot berilgan.

**Аннотация:** В этой статье представлена информация о правлении великого ученого и государственного деятеля Мирзо Улугбека узбекского астронома, математика, историка, географа, мастера музыковедения и одновременно вклада в развитие своего государства.

**Annotation:** this article describes the great scientist and statesman Mirzo Ulugbek as an Uzbek astronomer, mathematician, historian, geographer, master of music science and at the same time ruler who added to the development of his state.

**Kalit so'zlar:** Astronom, hukmdor, davlat arbobi, yulduzshunos, matematik, trigonometriya, sferik geometriya, intellektual, rasadxona, zodagon, maqbara, obida, ansambil, silindir shakli, Boburnoma, memorchilik, karvonsaroy, krater, kasr.

**Ключевые слова:** астроном, правитель, государственный деятель, звездочет, математик, тригонометрия, сферическая геометрия, интеллектуал, обсерватория, дворянин, мавзолей, памятник, ансамбль, цилиндрическая форма, Бабурнама, архитектура, караван-сарай, кратер, дробь.

**Keywords:** Astranum, ruler, statesman, star scientist, mathematician, trigonometry, spherical geometry, intellectual, Observatory, Noble, mausoleum, monument, ensemble, cylinder shape, Beaver, memorization, caravanserai, crater, barracks.

Mirzo Ulug'bek (to'liq ismi: *Muhammad Tarag'ay ibn Shohrux ibn Temur Ulug'bek Ko'ragon*; mo'g'ulcha xonning kuyovi degan ma'noni anglatadi.

1394-yil.22-mart, Sultoniya.

1449-yil.27-oktyabr, Samarqand – Temuriyla davlatining hukmdori, davlat arbobi, buyuk astronom (yulduzshunos) va matematik. Otasi Shohrux Mirzo davrida Movarounnahr hokimi va otasi vafot etgach butun Temuriylar imperiyasi sultoni (1447—1449) bo‘ldi. Ulug‘bek trigonometriya va sferik geometriya kabi astronomiya bilan bog‘liq matematika sohasidagi ishlari, shuningdek, san‘at va intellektual faoliyatga umumiy qiziqishlari bilan ajralib turardi. Besh tilni: turkiy, arab, fors, mo‘g‘ul va oz miqdorda xitoy tillarini bilgan deb taxmin qilinadi. Ulug‘bek hukmronligi davrida (avval hokim, keyin to‘g‘ridan-to‘g‘ri) uning e‘tibori va homiyligi tufayli temuriylar uyg‘onish davrining madaniy cho‘qqisiga erishdi. Samarqand hokimligi, otasi Shohrux Mirzo tomonidan Ulug‘bekga berilgan. Dastlab uning hukmronligi Samarqand, Buxoro, Nasaf, viloyatlari bilan cheklangan. 1412-yil Mavronnahr va Turkiston hokimiyati 18 yoshli Ulug‘bek qo‘liga o‘tgan 40 yil davomida mamlakatni boshqargan.

U 1424-1429-yillarda Samarqandda Ulug‘bek rasadxonasini qurdirdi. Rasadxona balandligi 31 metr edi. Olimlar nazarida bu rasadxona o‘sha davrda islom olami va Markaziy Osiyodagi eng yirik rasadxona bo‘lgan. Ulug‘bek keyinchalik ko‘plab olimlar tomonidan XV asrning eng buyuk astronomi sifatida tan olingan. Samarqandda va Buxoroda Ulug‘bek madrasasini (1417—1420) qurdirib, ushbu shaharlarni O‘rta Osiyoning madaniy ilm markazlariga aylantirdi.

Mirzo Ulug‘bek 1394-yil 22-martda bobosi Turon hukmdori Amir Temurning besh yillik urushlari davrida Sultoniya shahrida tug‘ilgan. Otasi Shohrux Mirzo, onasi turkiy qabila zodagonlaridan Gavharshod begim bo‘lgan. Unga Mirzo Muhammad Tarag‘ay ismi berildi. Ulug‘bek asli ism emas, balki „Buyuk hukmdor (bek)“ ma‘nosini beruvchi taxallus edi. Ulug‘bekning ustozlari shoir va olim Orif Ozariy bo‘lgan.

Bolaligida u Yaqin Sharq va Hindistonning katta qismini kezib chiqdi, chunki bobosi bu hududlarda urushlar olib borgan. Hindiston yurishi davrida bobosi Amir Temurni Samarqanddan Kobulgacha kuzatib brogan Temur 1404-yilda Xitoyga qarshi yurishidan oldin Sayram, Avliyoota va sharqiy hududlarni boshqarish huquqini nabirasi Mirzo Ulug‘bekka berdi. Temur vafotidan keyin Shohrux imperiya poytaxtini Hirotga (hozirgi Afg‘oniston hududida) ko‘chirdi. 1409-yilda Samarqandning hokimi bo‘ldi. 1411-yilda u butun Movarounnahrning hokimi deb e‘lon qilindi. Ammo, amalda Hirotidagi otasi Shohrux Mirzo hokimiyatiga bo‘ysungan. Mirzo Ulug‘bek davrida Samarqand gullab-yashnadi. Uning farmoyishi bilan 1417-yilda Buxoroda, 1420-yilda Samarqandda va 1433-yilda G‘ijduvonda madrasalar barpo etildi. Marv shahrida xayriya muassasalari qurildi. O‘smir hukmdor

shaharni imperiyaning intellektual markaziga aylantirishni maqsad qilgan. 1417—1420-yillarda Samarqanddagi Registon maydonida v *madrasa* („universitet“) qurdirdi va ko‘plab islom astronomlari va matematiklarini o‘qishga taklif qildi. Ulug‘bekning astronomiya bo‘yicha eng mashhur shogirdi Ali Qushchi (1474-yilda vafot etgan) edi. Qozizoda Rumiy Ulug‘bek madrasasining eng ko‘zga ko‘ringan muallimi bo‘lgan va keyinchalik bu o‘ringa astronom Jamshid al-Koshiy kelgan<sup>1</sup> Bibixonim masjidi, Amir Temur maqbarasi, Shohi Zinda ansambli qurilishlari nihoyasiga yetkazildi. Shuningdek, Ulug‘bek karvonsaroy, tim, chorsu, hammom kabi talay jamoat binolari ham barpo ettirgan. Samarqanddagi XV asr me‘morchiligining nodir namunalaridan biri Ulug‘bek rasadxonasidir. Ulug‘bek rasadxonasi - Samarqand shahrining eng diqqatga sazovor obidalaridan biri, 15-asr me‘morchiligining nodir namunasi. 1428-1429 yillarda Ulug‘bek farmoyishi bilan Cho‘ponota tepaligida ulkan silindr shaklida bunyod etilgan. Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida yozilishicha, balandligi 30, 4 metrdan iborat 3 qavatli bino qurilgan. Unda o‘ndan ortiq turli astronomik qurilmalar va asboblari bo‘lgan. Boburning yozishicha, rasadxonaning sirti koshin va sirli parchinlar bilan bezatilgan. Uning ichiga o‘rnatilgan juda katta asbob yordamida Quyosh, Oy, sayyora va yulduzlar katta aniqlikda o‘rganilgan. Shuningdek, ma‘lumotlarga ko‘ra rasadxonada kutubxona bo‘lgan. Mirzo Ulug‘bekning eng yirik astronomik asari “Ziji Ko‘ragoniy” rasadxonada yaratilgan. Uning qurilishi va keyingi ilmiy faoliyati Ulug‘bek taklifi bilan yig‘ilgan qator mashhur olimlar G‘iyosiddin Koshiy, Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi va boshqalar nomi bilan bog‘liq.

Ulug‘bek ilm-fan olamida buyuk astronom sifatida mashhur. Bu borada u amalga oshirgan eng buyuk ish „Ziji jadidi Ko‘ragoniy“ deb nomlangan astronomik jadval sanaladi. Ulug‘bek tibbiyot va musiqaga ham qiziqqan, she‘rlar ham yozgan. Alisher Navoiyning „Majolis un-nafois“ asarida uning she‘rlaridan na‘munalar keltirilgan. Olimdan bizga 4 ta asar meros qolgan:

- 1) „Ziji jadidi Ko‘ragoniy“ – astronomiyaga oid.
- 2) „Bir daraja sinusini aniqlash haqida risola“ – matematikaga oid.
- 3) „Risolayi Ulug‘bek“ – yulduzlarga bag‘ishlangan.
- 4) „Tarixi arba’ ulus“ (To‘rt ulus tarixi) – tarixga oid.

1447-yilda otasi Shohruxning vafotidan xabar topgan Ulug‘bek Balxga jo‘nadi. Bu yerda u o‘zining marhum akasi Boysung‘urning o‘g‘li Alovuddavlaning Hirotda Temuriylar saltanati hukmronligini da’vo qilganini eshitdi. Binobarin, Ulug‘bek Alouddavlagga qarshi yurish qildi va Murg‘obda jangda u bilan uchrashdi. U o‘z jiyani ustidan g‘alaba qozonib, 1448-yilda Hirotda qarab yurdi. Biroq Alouddavlaning ukasi Abulqosim Bobur Mirzo unga yordamga keldi va Ulug‘bekni mag‘lub etdi. Ulug‘bek Balxga chekindi va u yerda uning hokimi, to‘ng‘ich o‘g‘li Abdullatif Mirzo isyon ko‘targanini bildi. Yana ichki urush boshlandi. Abdullatif Amudaryo bo‘yida

otasining qo‘shinini kutib olish uchun qo‘shin to‘pladi . Biroq Ulug‘bek shahardagi notinchlik xabarini eshitib, hech qanday jang bo‘lmasdan turib Samarqandga chekinishga majbur bo‘ladi. Abdullatif tez orada Samarqandga yetib boradi va Ulug‘bek beixtiyor o‘g‘liga taslim bo‘ladi. Abdullatif otasini hibsdan ozod qilib, Makkaga haj qilishiga ruxsat berdi. Biroq, manziliga yetib bormasdan turib otasi va ukasi Abdulazizni ham 1449-yilda oktyabrning 27-sanasida, ya’ni 55 yoshida Samarqand yaqinida o‘ldirildi. Ulug‘bekning yaqinlaridan biri Abdulloh, uni Samarqandning Amir Temur maqbarasi ziyoratgohida keltirgan. 1830-yilda osmon Yulduzshunoslari Johann Heinrich von Mädler oyda bor bo‘lgan kraterlarning birini Ulug‘bek nomiga musammo qildi.

U 1437-yilda 1018 yulduz to‘plamini „Ziji sultoni“ asarida tartib berganki, u hozirgi paytda ham yulduzlar bilimi sohasida dunyoning eng buyuk asarlaridan biri sanaladi. Ushbu asar 1665-yilda Oxfordda Thomas Hyde tamonidan, 1843-yilda Fransiya Bailly tamonidan va 1917-yilda Edward Ball Knobel tamonidan yangidan tahrirlanib bosilgan. Ulug‘bek undan keyin bir yilni 365 kun, 5 soat, 49 daqiqa va 15 sonya deb belgilagan. Ulug‘bek ushbu hisobida faqatgina 25 soniya xato qilgan ekan. Undan boshqa Ulug‘bek yer yuzini o‘rtalik kajligini 23.52 daraja deb belgilagan va bu yuz yillar davomida eng to‘g‘ri va aniq o‘lcham deb topilgan. Oyda Mirzo Ulug‘bek sharafiga nomlangan krater ham bor. Uchburchaklar bilimida esa Ulug‘bek soya va tanjont qiymatlarini sakkiz o‘nlik kasr va sakkiz xona a‘shoryagacha aniq belgilagan. Ulug‘bek davrida ko‘pgina asarlar arab va fors tilidan eski o‘zbek tiliga tarjima qilingan. U tashkil etgan boy kutubxonada 15000 dan ortiq kitob bo‘lgan.

**Xulosa** qilib aytganda Buyuk sarkarda Amir Temurning suyukli nabirasi Mirzo Ulug‘bek nafaqat astronom, balki matematik, ma’rifatchi, shoir, tarixchi hamdir. XV asrda u insonlarni ta’limga chorlagan: "Muslimlar ham, muslimalar ham bilimga ega bo‘lishi kerak". Ulug‘bek xalqqa ma’ifat berishni juda istar edi. Shu maqsadda u madrasalar – oliy ta’lim muassasalarini qurdirdi. O‘sha olis davrlarda fanga ishtiyoq xavfli mashg‘ulotga aylandi. Mirzo Ulug‘bek din peshvolarini o‘ziga qarshi qo‘ydi, harbiy yutuqlarning yo‘qligi esa uning obro‘sigacha putur yetkazdi. Natijada, Ulug‘bekning to‘ng‘ich o‘g‘li Abdullatif boshchiligida qo‘zg‘olon ko‘tarildi. Ota va o‘g‘il o‘rtasidagi hal qiluvchi jang Samarqand yaqinida bo‘lib o‘tdi. Ulug‘bek qo‘shinlari mag‘lubiyatga uchradi va u taslim bo‘lishga majbur edi. Abdullatifning roziligi bilan Mirzo Ulug‘bek Makkaga yo‘l oldi, ammo yo‘lda xoinlar Ulug‘bekni ushlab, hukmdorning boshini olishdi. Bu voqea 1449-yil 27- oktyabrda sodir bo‘ldi. Mirzo Ulug‘bek vafotidan keyin rasadxona yana 20 yil ishladi, ammo tez orada yopildi va bino asta-sekin qulab tushdi. Rasadxona 1908-yilda ochildi. Arxeolog Vyatkin mavjud hujjatlardan foydalanib, Samarqanddagi Ulug‘bek rasadxonasini topdi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1) Nizomiddin Shomiy “Zafarnoma”-T: O’zbekiston 1996 B-19
- 2) Azamat Ziyov “O’zbek davlatchiligi tarixi” T: Sharq, 2001 B-307
- 3) Mirzo Ulug’bek “To’rt ulus tarixi” T: 1994
- 4) Hoji Ismatulloh Abdulloh “Markaziy osiyoda islom madaniyati” T-Sharq 2005
- 5) Vosifiy. Badoe ul vaqoe (Nodir voqealar) Fan T:1979
- 6) Fayziev T. Temuriylar shajarasi Toshkent:Yozuvchi-Xazina 1995.B-308.
- 7) Axmedov A. Ulug’bek T. Fan 2005.
- 8) To’raev B.O. Muxammad Tarag’ay Mirzo (1394-1949).